



## **MAJMUAT UR-RASOIL TARKIBIDAGI “RISOLAI BOBURIYA” RISOLASI GENEZISI**

**Kattayev Po‘lat A‘zamovich,**

*Alisher Navoiy Nomidagi TOShDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207183>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘z davrining yetuk mutaffikiri, faqih, tasavvuf allomasi Mahdumi A‘zam Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy qalamiga mansub “Majmuat ur-rasoil” to‘plami tarkibiga kiruvchi “Risolai Boburiya”ning matn tarixi, yozilish sabablari haqida ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Xoja Ubaydulloh Axrori valiyning “Risolai Volidiyya” kabi mo‘tabar asarlarda keltirilgan ma‘lumotlar asosida Risolai Boburiya ning genezisiga doir izohlar, aniqliklar kiritildi.

**Kalit so‘zlar:** Mahdumi A‘zam Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy, Bobur, “Majmuat ur-rasoil”, “Risolai Boburiya”, “Risolai volidiyya”, “Muzakkiri ahbob”.

**Kirish.** Dunyo matnshunosligida qo‘lyozma manbalar, matn tarixi va tadqiqi, matn badiiyati va poetikasi singari masalalar dolzarb muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Chunki qo‘lyozma manbalarni o‘rganish har bir davr va turli xalqlar adabiyotshunosligi uchun yangidan-yangi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi. Asl yozma matnlarini o‘rganmasdan turib, badiiy adabiyot materialining adabiy-estetik va ilmiy qimmatini haqqoniy baholab bo‘lmasligi qo‘lyozma manbalarni, matn tarixi va talqini masalalarini tadqiq qilish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

“Matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilayotgan” hozirgi kunda “Majmuat ur-rasoil” tarkibiga kiruvchi “Risolai Boburiya” asari genezisini, qo‘lyozma va toshbosma manbalarini, qiyosiy-matniy tahlilini amalga oshirish, badiiy qimmatini aniqlash masalalari har qachongidan ham dolzarbdir.

**Asosiy qism.** Majmuat ur-rasoil” tarkibiga kiruvchi “Risolai Boburiya” asarining qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirishdan avval ushbu risolaning matn tarixi, yozilishiga oid sabablarni, turli manbalar asosida keltirib o‘tishni lozim ko‘rdik.

O‘z davrining siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotiga katta hissa qo‘shgan, Xoja Ubaydulloh Axror Valiy zamonida Naqshbandiya tariqati yuqori bosqichga olib chiqildi. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida u zot haqida chuqur ehtirom



bilan shunday deydi, –“Hazrat Xoja va alarning muxlislari va niyozmandlaridurlar. Umid uldurkim, alarning sharif vujudlari barakatidin bu sharif silsilaning iltiyom va intizomi ilo yavmil qiyom imtidod topqay”.

Xoja Axor Valiy ilm yo‘lida beqiyos xizmat qilib, u kishidan bizga bir necha muhim asarlaryetib kelgan. Xuddi shunday asarlaridan biri “Risolai volidiyya”dir. Bu asar Xoja Axrori Valiyning otasining iltimosiga ko‘ra yozilgan asar bo‘lib unda naqshbandiya tariqatining asoslari o‘z bayonini topgan. Shoh, shoir, zamonining buyuk faqih, Zahiriddin Muhammad Bobur, tasavvufda o‘ziga ustoz bilgan Xoja Ubaydulloh Axror qalamiga mansub “Risolai volidiyya” asarini nazmga soladi. Asarning tasavvuf, tariqat ta‘limi, valiylar ma‘naviy olami haqida o‘ta ta‘sirchanligiga dalil qilib,

*Robita qolmasa, ul hol ketar,  
So‘z eshitur esang, ushmuncha yetar...*

Misralarini keltiradi. Asar tugallangach uni piri Xojagiy Kosoniy Mahdumi A‘zamga yuboradi. Bu haqda, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarida ham ma‘lumotlar kelgan.

Xoja Ahrorga irodati bo‘lgan Bobur podshoh ham bu ulug‘lar xonadoniga nisbatan izzat-ikromni soatma-soat oshirar va biron daqiqa bu ishni kanda qilib, g‘aflatda qolmas edi. Barcha darvishlarga lutf eshigini ochib, niyozmandlik yumushini bajo keltirardi. Hazrat Maxdumiy mullo Xojagiy Kosoniyga — sirlari muqaddas bo‘lsin — bir bo‘lak oltin quymasini niyoz tariqasida yuborib, yonida o‘zining ushbu qit‘asini ham shohid qilgandi.

Qit‘a:  
*Dar havoiiy nafsi gumroh umr zoe karchaem,  
Peshi ahlulloh az atvori xud sharmandaem.  
Yak nazar afkan ba so‘i mo, ki az rohi vafo,  
Xojagayro mondaem, xojagyro bandaem.*

(Mazmuni: Adashgan nafsimiz havasi yo‘lida, umrni zoe qildik, din ahli oldida bu qilmishimizdan uyatlimiz. Biz tomonga hech bo‘lmasa bir nazar sol, vafodorlik ila xojaga bog‘langanmiz, xojaga bandamiz.)

“Risolai Boburiya” Xoja Ubaydulloh Ahrori Valining “Risolai volidiya” asarini Hindiston podshohi temuriy Bobur mirzo tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan she‘riy tarjimasining birinchi nusxasini sovg‘a-in‘omlar bilan birgalikda piri hisoblangan Maxdumi A‘zamga yuborib, ul zotdan maslahat so‘rab murojaat etgan xatiga javob tariqasida yozilgan asardir. Bu haqda K. Kattayev ham o‘z tadqiqotida shunday



deydi, — “Bobur mirzo Xoja Ahrorning “Risolai volidiya” asarini tarjima etib, o‘z ruboiylari va sovg‘a-salomiga qo‘shib piriga yuborgan. Javob tariqasida Maxdumi A‘zam “Risolai Boburiya” asarini yozgan, deb keltirishgan. Ammo fikrimizcha, Bobur mirzo piriga yana bir alohida xat yuborib, undan zikrga doir ba‘zi masalalarni hal qilib berishni iltimos qilgan, ko‘rinadi. Chunki agarda, faqatgina yuborgan nazm va nasriga oid yozishmalarga javob berilganda edi, unda risolaga “Sharhi g‘azaliyoti Boburiya” (xuddi, “Sharhi g‘azaliyoti Ubaydiy” nomli risolalari kabi) nomi qo‘yilardi. Undan tashqari, risolaning aksariyat qismi zikr masalasiga bag‘ishlangan”. Chunki o‘sha davrdagi turli tariqat ahllari orasidagi ixtiloflarda aynan ushbu risola kerak edi. Zikrning xufiy yoki jahriy aytilishida hech bir zarar yo‘qligiga ilk bor Mahdumi A‘zam Dahbediy “Risolai Boburiya”da ochiq bayon qilgan.

Tasavvuf irfonlaridan tashqari o‘zining badiiy jozibadorligi bilan ham turuvchi ushbu risola o‘z zamonasida Yassaviya, Naqshbandiya va boshqa tariqatlarga oid muhim masalalarni hal qilishda asosiy rol o‘ynagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu risola matn tarixini o‘rganishda bir necha dolbزاب o‘rinlar o‘rganildi.

- Risolaning yozilish sabablari o‘rganilib, unda asosan tarixiy manbalarga tayanildi;
- “Risolai Boburiya” matn tarixini yaratishda hozirgi kun matnshunos olimlari tadqiqotlariga ham tayanildi;
- Mahdumi A‘zam hamda Bobur mirzo orasidagi iliq munosabatlar, ustoz-shogird an‘analari dalillar asosida yoritildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy mukammal asarlar to‘plami 17-tom, Nasoyim ul muhabbat. 283 B.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. //Xalq so‘zi, 2017-yil 25-may.
3. Abduhalilov B. Xoja Axror Valiy “Risolai volidiyya”. Yangi asr avlodi, 2004. 20 B.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Risolai volidiyya nazmiy tarjimasini va sharhi. Nasriy bayon va sharhlar muallifi M. Kenjabek; mas‘ul muharrir A. Mansur. T.: “Sharq”. 2014. 446 B.
5. Hasanxoja Nisoriy. “Muzakkiri ahbob”. O‘zRFA ShI, asosiy fond, Inv; 4282.
6. Hasanxoja Nisoriy. “Muzakkiri ahbob”. Toshkent, 1993. 344 B.